



O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHDA ELEKTR ENERGETIKA SOHASINI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

i.f.d., prof. Karimqulov Jasur Imamboevich,

Nuritdinova Moxinur Doniyor qizi

TMI magistranti

Toshkent, O'zbekiston

Email:moxinurnuritdinovaaa2735@gmail.com

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE ELECTRIC POWER INDUSTRY IN IMPROVING THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN

i.f.d., prof. Jasur Imamboevich Karimkulov,

Nuritdinova Mokhinur

Master student of TFI

Tashkent, Uzbekistan

Email:moxinurnuritdinovaaa2735@gmail.com

JEL Classification: K3, K32

Annotatsiya. Ushbu maqolada MHXSga muvofiq energetika sohasida qabul qilingan buxgalteriya amaliyoti yoritilib berilgan. Energetika sektori jahon iqtisodiyotining ajralmas qismidir va xozirgi kunda ko'p kompaniyalar tashqi bozorga chiqmoqda, ba'zi korxonalar esa jahon miqiyosda ishlay boshladi. MHXSni joriy etish energetika kompaniyalariga uzoq muddatli va katta daromad keltiradigan vositadir ammo bu tizimni joriy qilishda ham jiddiy muammolar o'r ganilgan, ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish natijasida tadbirkorlik muhitini yaxshilashda elektr energetika sohasining holati mualliflar tomonidan tahlil qilinib, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Abstract. This article describes the accounting practices adopted in the energy sector in accordance with the IFRS. The energy sector is an integral part of the world economy, and today many companies are entering foreign markets, and some enterprises have begun to work on a global scale. The implementation of IFRS is a tool that brings long-term and large profits to energy companies, but serious problems in the implementation of this system have also

been studied, as a result of conducting social surveys, the authors have analyzed the state of the electric power industry in order to improve the business environment, and scientifically based proposals and recommendations have been developed.

Kalit so'zlar: Moliyaviy boshqaruvi, moliyaviy hisobot, elektr energiya, MHXS, buxgalteriya, investitsiya, korporatsiya, Issiqlik elektr stantsiyasi.

Key words: financial management, financial reporting, power industry, IFRS, accounting, investments, corporation, thermal power plant.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab, O'zbekistonning energetika siyosati mamlakatning energetik xavfsizligini ta'minlashga va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun milliy energetika tarmog'ining imkoniyatlaridan foydalanishga yo'naltirildi.

Elektr energetikasi iqtisodiy o'sishning barqarorligini va aholi farovonligini ta'minlaydigan muhim manbadir. Bu tarmoqni modernizatsiya qilish, energiya quvvatlarini ko'paytirish va iste'molchilarga uzluksiz yetkazib berish bo'yicha katta ishlar

amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 1-fevraldag'i qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tashkil etilgan edi. O'sha yilning 27-martidagi Prezident qaroriga asosan, "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati isloh qilinib, uning negizida "Issiqlik elektr stansiyalari", "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" va "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatlari tashkil topdi. O'tgan yili mamlakatimizda 6 ta yirik loyiha doirasida jami 1076 megavatt elektr energiya quvvatlari ishga tushirildi.

Joriy yilda elektr energiyasi iste'moli 71 milliard kilovatt-soatni tashkil etib, o'tgan yilgiga nisbatan o'rtacha 9 foizga, ya'ni, iqtisodiyot tarmoqlari talabi 10, aholiniki esa 8,5 foizga oshishi kutilmoqda. Joriy yilda issiqlik elektr stansiyalarida 1177 megavatt, gidro elektr stansiyalarida 120 megavatt quvvatlar ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar hisobiga 3 ming 500 megavattli bug'-gaz qurilmalari, 400 megavattli shamol va shunday quvvatga ega quyosh elektr stansiyalarini qurish bo'yicha loyihalar shakllantirilgan.

So'nggi yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish xajmi tobora oshib bormoqda. 2016-yilda mamlakatda 59,0 mlrd kilovatt/soat elektr energiya ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 71,3 mlrd kilovatt/soatni tashkil etgan. So'nggi 5 yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 121 foizga oshdi

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida elektr energetikasining asosiy maqsadi iste'molchilarining tobora o'sib borayotgan ehtiyojlarini qanoatlantirish, mavjud elektr stantsiyalari va tarmoqlarini modernizatsiya va rekonstruktsiya qilish, yuqori samarali energiya ishlab chiqarish texnologiyalari asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini qurish, shuningdek,

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish orqali elektr energiyasini hisobga olish tizimini takomillashtirish, yoqilg'i-energetika resurslarini diversifikatsiya qilishdan iborat.

2021 yilda 52 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali quyidagilarga erishish amalga oshirildi:

— energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini yanada modernizatsiya qilish, tabiiy gazdan foydalanish samaradorligini oshirish va tarmoq mahsulotlarining energiya sarfini kamaytirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

— respublikada gidroenergetika resurslarining muhim salohiyatini jadal rivojlanish tendentsiyasini saqlab qolish;

— yagona elektr energetika tizimini barqarorlashtirish orqali iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashning ishonchiligini oshirish, mamlakatning energiya xavfsizligini mustahkamlash.

Material va metod. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining o'rinosbasari Dilshod Sultonov o'zining ma'rurasida "Hukumat global iqtisodiyotga integratsiyani tezlashtirish orqali o'tishni amalga oshirmoqda. Bu maqsadga raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratish orqali erishish mumkin, buning uchun muhim tarkibiy qismlardan biri – xorijiy investorlar ishonadigan yuqori sifatli moliyaviy ma'lumotlarning mavjudligidir. Bunday natijaga MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzish orqali erishish mumkin" deb ta'kidlab o'tgan [7].

S.N.Tashnazarovning fikriga ko'ra "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – bu moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti fanining alohida tarmog'i bo'lib, moliyaviy hisobotning kontseptual asoslari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari zaruriyati, ishlab chiqilishi, ularning mazmuni, interpretatsiyasi va

qo'llanilishining nazariy va metodologik masalalarini o'rganuvchi qismidir”[3].

Bizning fikrimizcha, S.A. Nikolayevaning taklifi o'rta muddatli istiqbolda eng maqbul yechimdir, lekin bu, faqat hisobotlarni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yoki milliy qoidalarga muvofiq tuzish imkoniyati qonunchilikda mustahkamlangan taqdirdagina maqbul sanaladi. Moliyaviy hisobotlarning ikkita to'plamini taqdim etish majburiyati buxgalteriya hisobini murakkablashtiradi va moliyaviy hisobotni tayyorlash xarajatlarini oshiradi. U yirik yoki ijtimoiy ahamiyatga ega kompaniyalarni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazishni taklif qilgan.

Energetika sohasini rivojlantirish har doim davlat nazorati ostida hisoblanadi. Bunga O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan sohaga oid qonunchilik hujjatlari misol bo'la oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalg qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalarini kiritish alohida ta'kidlab o'tilgan.

Natijalar. Elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda mavjud bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol va biogaz, kichik tabiiy va sun'iy suv oqimlarining gidroenergiyasidan) deyarli foydalanimay kelinmoqda.

Qayd etilishicha, O'zbekistonning 2022—2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasiga asosan, mamlakatda “yashil” energetikani rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Xususan, 2026-yilga borib O'zbekistonda quyosh va shamol elektr

stansiyalari hajmi 8 ming MVtga, gidroelektr stansiyalari hajmi esa 2 920 MVtga (jami 10 920 MVt) yetkaziladi. Buning natijasida ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 25 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari (“yashil” energetika) ulushini tashkil qiladi. Yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi.

Shu hajmdagi tejalgan gaz bilan 1 million xonadonni 1 yil davomida tabiiy gaz bilan ta'minlash mumkin. Yoki qo'shimcha ravishda 15 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. 15 milliard kVt/soat hajmdagi elektr energiyasi O'zbekiston aholisining qariyb (98 foiz) 1 yillik iste'molini tashkil qiladi.

“Issiqlik elektr stantsiyalari” AJ korxonalarida tahliiy o'rganishlardan so'ng, import va kooperatsiya mahsulotlari ro'yxati ishlab chiqildi. Unga asosan, 2018-2021 yillarda “Issiqlik elektr stantsiyalari” AJ ehtiyojlari uchun mahsulotlar (uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar) importining yillik hajmi prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, o'rtacha 33,2 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Sanoat kooperatsiyasining kengayishi hisobiga 2019 yilda importning amaldagi qisqarishi 4,98 mln AQSh dollarini tashkil qildi.

Import hajmini kamaytirish uchun tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar ro'yxati tuzilib, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga taqdim etildi.

2020 yilda “Issiqlik elektr stantsiyalari” AJ 8,9 mln AQSh dollari miqdorida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishni ishlari amalga oshirilgan, bu bilan import qilinadigan mahsulotlar 27%ga kamaygan. Shundan:

— tayyor mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hisobiga 5,620 mlrd so'm (0,591 mln AQSh dollari);

— sanoat kooperatsiyasi hisobiga 84,0 mlrd so‘m (8,4 mln AQSh dollarari).

— 2021 yilda “Issiqlik elektr stantsiyalari” AJ 9,8 mln AQSh dollarari miqdorida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish ishlari amalga oshirilgan, bu esa import qilinadigan mahsulotlar 30 %ga kamayishiga olib kelgan. Shundan:


— tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hisobiga 11,885 mlrd so‘m (1,247 mln AQSh dollarari).

— sanoat kooperatsiyasi hisobiga 86,0 mlrd so‘m (8,6 mln AQSh dollarari).

— 2030 yilga kelib, ushbu chora-tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga

oshirilishi natijasida umumiy quvvati 24 ming MVt bo‘lgan va aholi ehtiyojlarini to‘liq qanoatlantiradigan natijaga erishish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, issiqlik elektr energiyasining ulushini 89%dan 76%gacha (tabiiy gazni 89%dan 64%gacha) kamaytirish, qayta tiklanuvchi va muqobil energiyani esa 23%gacha oshirish ko‘zda tutilgan (gidroenergetika – 10,3%, yadro energetikasi – 10%, quyosh va shamol energetikasi – 3,2%).

Shuni ta’kidlash kerakki, har qanday mamlakatning energetika sohasi asosan quyidagi tarkibiy qismlarga birlashtirilishi mumkin bo‘lgan bir nechta korxonalardan iborat (1-rasm).



1-rasm. Energetika tizimining tarkibiy elementlari

1-rasmdan ko‘rinadiki, energetika sohasi asosan quyidagi tarkibiy elementlarga bo‘linadi:

- 1) elektr energiyasini ishlab chiqarish;
- 2) elektr energiyasini yetkazib berish (transportirovka);
- 3) elektr energiyasini sotish.

Energetika sohasining har bir tarkibiy elementi bir necha turdag'i korxonalarga bo‘linadi:

1. Elektr energiyasini ishlab chiqarish quyidagi tashkilotlar orqali amalga oshiriladi:

Issiqlik elektr markazi (IEM) – bu nafaqat elektr energiyasini ishlab chiqaradigan, balki bug‘ va issiq suv ko‘rinishidagi markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti tizimlaridir, ularga turar joy va sanoat ob'ektlarini isitish, issiq suv ta'minoti ham kiradi.

Issiqlik elektr stantsiyasi (IES) – bu yoqilg‘ini yoqish orqali kimyoviy jarayonda hosil bo‘lgan energiyani elektr energiyasiga aylantirib beradigan maxsus stantsiyadir. Yoqilg‘i manbalari bo‘lib ko‘mir, tabiiy gaz, mazut xizmat qiladi.

Bugungi kunda maxsus adabiyotlarda moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobini o‘z ichiga olishi kerak bo‘lgan yagona hisob tizimi kontseptsiyasini ishlab chiqish masalasi tobora ko‘proq muhokama qilinmoqda. Ushbu masala moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq ichki buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini isloq qilish bilan bog‘liqdir.

Xulosa. Respublikamizda, xususan, energetika tarmog‘ida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida investorlar, kreditorlar, davlat organlari tomonidan iqtisodiy asoslangan samarali qarolarning qabul qilinishi xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar,

shuningdek, tadqiqot ob'ekti hisoblangan “Issiqlik elektr stantsiyalari” AJ tomonidan ishonchli buxgalteriya ma'lumotlarining tayyorlanishi va tashqi foydalanuvchilarga o‘z vaqtida yetkazib berilishi bilan bevosita aloqador.

Ushbu qo‘yilgan vazifaga samarali erishish uchun esa, respublikamizda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini keng ko‘lamda joriy etish, mustaqil audit tizimini zamonaviy moliya bozori talablariga mos ravishda takomillashtirib borish zaruriyati yuzaga keladi. Zero, samarali iqtisodiy qarolarning qabul qilinishiga asos bo‘ladigan buxgalteriya tizimi ma'lumotlarining belgilangan tamoyillarga mos ravishda tuzilganligi mustaqil audit tizimi vositasida aniqlanadi.

Mustaqillik yillari mobaynida respublikamizda ham Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini tatbiq etish va tashqi auditorlik faoliyati tizimida ahamiyatli ijobjiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, auditorlik faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi bir qator muhim qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va ushbu soha milliy iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini tashkil etuvchisi sifatida rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida 2021 yildan auditorlik tekshiruvlarining butunlay xalqaro standartlar asosida amalga oshirilishini keltirishimiz mumkin. Iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishslashga mo‘ljallangan xalqaro standartlar asosida buxgalteriya tizimi tobora takomillashib borayotgan davrda unga mos ravishda auditorlik faoliyatini ham rivojlantirib borish, fan va texnologik yangiliklarni auditorlik faoliyati amaliyotida tobora kengroq qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrdagi PF-6096-sonli farmoni.
2. 2018-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash kontseptsiysi.
3. S.N. Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. T.: "Navro'z" nashriyoti, 2016 y. 31-47-b.
4. Terexova V.A. Buxgalteriya hisobinig milliy va xalqaro standartlari «Iqtisod va hayot» 2000 y.
5. Adams, R. Audit asosi: / YuNITI, 1995 y.
6. Robertson Djek K. Audit- M.: KPMG, «Kontakt», 2003 y.
7. <https://uzdaily.uz/ru/post/53013>